



Baxtiyorova Ruxshona Sodiqjon qizi,
Navoiy davlat universiteti
“Tarix” ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi
e-mail: bahtiyorovaruxshona76@gmail.com

SOVET DAVRIDA O‘ZBEK AYOLLARINING IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTDAGI O‘RNI

<https://doi.org/10.65185/mojgo.vi.463>

Annotatsiya. Maqola Sovet davrida O‘zbekiston ayollarining ijtimoiy va siyosiy hayotdagi faoliyatini tahlil qiladi. “Hujum” siyosati, ayollarning mehnat, ta’lim va siyosiy ishtiroki, shuningdek, milliy qadriyatlar bilan yuzga kelgan ziddiyatlar yoritiladi. Tadqiqot sovet modernizatsiyasining ayollarning jamiyatdagi mavqeyiga ta’sirini ko’rsatadi.

Tayanch soʻzlar: sovet davri, o‘zbek ayollari, “Hujum” siyosati, ijtimoiy faollik, mehnat, ta’lim, siyosiy ishtirok.

Аннотация. Статья анализирует участие женщин Узбекистана в общественной и политической жизни в советский период. Рассматриваются политика “Худжум”, труд, образование и политическая активность женщин, а также конфликты с национальными традициями. Исследование отражает влияние советской модернизации на статус женщин.

Ключевые слова: советский период, узбекские женщины, политика “Худжум”, социальная активность, труд, образование, политическое участие.

Annotation. The article analyzes the participation of Uzbek women in social and political life during the Soviet period. It examines the “Khudjum” policy, women’s labor, education, and political activity, as well as conflicts with national traditions. The study shows the impact of Soviet modernization on women’s societal status.

Keywords: Soviet period, Uzbek women, Khudjum policy, social activity, labor, education, political participation.

Kirish. XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda, jumladan, O‘zbekistonda ayollar hayoti, asosan, patriarxal an’analarga tayanar, ularning ijtimoiy mavqeyi erkaklarga nisbatan past hisoblanardi. Ayollar, asosan, uy-ro‘zg‘or yumushlari, bola tarbiyasi bilan shug‘ullanar, ijtimoiy hayotda deyarli qatnashmasdi. 1917-yilda Rossiyada yuz bergan Oktyabr inqilobi va sovet hokimiyatining o‘rnatilishi bu holatni o‘zgartirdi. Bolsheviklar “Ayollar ozodligi” g‘oyasini o‘z siyosatining muhim tarkibiy tarkibiy qismi sifatida ilgari surib, Sharq xalqlari orasida bu jarayonni jadallik bilan amalga oshirishga kirishdi.

Bu davrda o‘zbek ayollarining hayotida tub burilish yuz berdi. Ayniqsa 1920–1930-yillardagi “Hujum” siyosati ayollarni savodsizlikdan xalos etish, ishlab chiqarish va siyosatga jalb etish choralari tarixda muhim bosqich bo‘ldi¹.

Maqsad va uni asoslash. 1917-yildagi bolsheviklar inqilobidan keyin SSSR hukumati uzoq muddat davomida kuchli va buzilmas sotsialistik rejim o‘rnatish maqsadida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishga harakat qildi. Buning uchun ko‘plab huquqiy me’yorlar

¹ Shamsutdinov R., Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.

va targ'ibot vositalaridan foydalandi. Sovet hukumating kun tartibidagi maqsadlaridan biri O'rta Osiyo ayollarini "ozod qilish" edi. Bolsheviklar "ayollarni ozod qilish"dan ko'zlagan muddaosi asosiy e'tiborni iqtisodiy va siyosiy sohalarida yangi ishchi kuchini yaratishga qaratgan. Ular kommunistik jamiyatni barpo etish va uni bardavom qilish uchun ayollar muhim ijtimoiy qatlam ekaniga qattiq ishonardilar². Sovet hukumatining o'zbek xotin-qizlarini "ozodlikka chiqarish"dek murakkab ishi 1919-yil 12-noyabrda RKP(b)ning Turkiston o'lka qo'mitasida xotin-qizlar bo'limini tashkil etishdan boshlangan edi. Keyinchalik u Turkiston KP Markaziy Qo'mitasi xotin-qizlar bo'limiga aylantirildi³.

Ayni vaqtda hududlarda xotin-qizlar bo'limini tashkil etish masalasiga ham alohida e'tibor qaratila boshlandi. 1919-yilning noyabrida Toshkent, 1919-yil 14-dekabrda Samarqand, 1919-yilning fevralida Farg'ona, 1920-yilning martida Sirdaryoda, so'ngra Andijon, Kattaqo'rg'on, Kogon va boshqa hududlarda xuddi shunday bo'limlar ochila boshlandi. 1920-yil oxiriga kelib respublikada 40ga yaqin xotin-qizlar bo'limlari faoliyat yuritdi⁴. 1927-yilda O'zbekiston SSRda sovet rahbarlari tashabbusi bilan "Hujum" deb nomlangan siyosiy kampaniya boshlandi. Uning maqsadi – o'zbek ayollarini "feodal-milliy asorat"dan "ozod qilish", ularni sovet jamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida shakllantirish edi. "Hujum"ning tashkiliy markazi sifatida "Ayollar bo'limi" faoliyat yuritdi. Tashviqot-targ'ibot ishlari davomida ayollardan paranji va niqoblarni yechish, jamoat ishlarida qatnashish, ta'lim olishga kirishish talab qilindi. Bu siyosat qog'ozda ozodlik sifatida ko'rsatilsa-da, mahalliy aholi orasida juda katta ijtimoiy qarama-qarshiliklar keltirib chiqardi.

Ko'plab joylarda paranjni yechgan ayollar jamiyat tomonidan rad etildi, ayrimlari o'z yaqinlari tomonidan jazolandi. Masalan, 1929-yilda Samarqand va Buxoro vohalarida "Hujum" siyosatiga qarshi harakatlar kuzatildi.

² Mardiyeva G.K. O'zbek xotin-qizlari:ijtimoiy o'zgarishlar sovet hukmronligi davrida // "SCIENCE AND EDUCATION" scientific journal/www.openscience.uz.2023.

³ Алимова Д.А. Женский вопрос в Средней Азии. История изучения и современные проблемы. – Ташкент, 1991. – С. 19.

⁴ Nishonboyeva Q.V. O'zbekistonda xotin-qizlar masalasini hal etishning madaniy jihatlari.20–30-yillar. Tajriba va oqibatlar. Tarix fan.diss., 1998. – 31 b.

Shu bilan birga, sovet hukumati bu jarayonni qat'iy nazorat ostida olib bordi va "ayollar ozodligi"ni kommunistik mafkuraning ramziga aylantirdi. "Hujum"ning ijobiy jihati shundaki, aynan o'sha davrda ko'plab ayollar maktab va kurslarda savod chiqarish imkoniga ega bo'ldi. 1930-yilga kelib, respublika bo'yicha 120 mingdan ortiq ayol qisqa muddatli kurslarni tugatgan⁵. Sovet davrining eng muhim yutug'i ayollar savodsizligining bartaraf etilishi bo'ldi. 1917-yilda O'zbekistonda ayollar savodxonligi 5 foizdan oshmagan bo'lsa, 1970-yillarga kelib, bu ko'rsatkich 97 foizga yetdi. Ayollar o'rtasida pedagogika, tibbiyot, san'at, adabiyot va jurnalistika sohalarida faoliyat olib boruvchilar soni ortdi. 1950–1960-yillarda o'zbek ayollaridan taniqli shoira (Zulfiya, Saida Zunnunova) lar, olim (Soadatxo'ja Saidova)lar, shifokorlar va muhandislar yetishib chiqdi. Talim olish imkonining kengayishi o'zbek ayollarining ijtimoiy ongini yuksaltirdi, ularning jamiyatdagi nufuzini oshirdi⁶. Sovet davlati ayollarning siyosiy faolligini oshirish maqsadida ularni mahalliy kengashlar, kasaba uyushmalari va partiya tashkilotlariga jalb etdi. Masalan, 1960-yillardagi O'zbekiston SSR Oliy Sovetida deputatlarning 25 foizini ayollar tashkil etgan. Bu esa ularning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida faol ishtirok etayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, "Saodat", "Yangi yo'l", "Mushtum" kabi nashrlar orqali ayollar ijtimoiy hayotga faol kirib keldi. Ushbu matbuot organlari ayollarning ma'naviy dunyosini kengaytirish, ularni yangi hayotga moslashtirish, shuningdek, ularning ovozini jamiyatga yetkazishda muhim rol o'ynadi. Biroq shunga qaramay, Sovet davrida ayollar erkaklar bilan teng huquqlikni qonuniy jihatdan qo'lga kiritgan bo'lsa-da, real hayotda ayrim ijtimoiy to'siqlar saqlanib qoldi. Ayollar, asosan, ma'muriy, xizmat ko'rsatish va ta'lim tizimlarida to'plangan bo'lib, yuqori rahbarlik lavozimlarida ularning ulushi cheklangan edi.

Ikkinchi jahon urushi yillari (1941–1945) da ayollarning mehnatdagi roli yanada kuchaydi. Erkaklarning katta qismi frontga jo'natilgani sababli zavodlar, fermalar, paxta dalalari va transport sohalarida ayollar asosiy kuchga aylandi. O'sha yillarda ayollarning mehnati nafaqat

⁵ Usmonov Q., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2009. – B.168-170.

⁶ Usmonova L. O'zbekiston ijtimoiy hayotida xotin-qizlar faolligini oshirish. Vos Journals, 2021.

iqtisodiy, balki siyosiy ahamiyat kasb etdi – ular “mehnat frontining qahramoni” sifatida e’tirof etildi. Masalan, Tursunoy Saidazimova, Robiya To‘xtayeva, Xadicha Sultonova kabi ayollar respublika miqyosida tanilgan ilg‘or mehnatkashlar bo‘lib, ularning ismlari sovet matbuotlarida faxr bilan tilga olindi⁷. Xususan, “Pravda” gazetasining 1943-yil 8-martdagi 65-sonida shunday deyilgan: “Sovet xalqi g‘urur bilan aytishi mumkin: o‘tmishda hech qachon ayol o‘z vatanini himoya qilishda sovet xalqining fashist bosqinchilariga qarshi “Ulug‘ Vatan urushi” davridagidek fidokorona ishtirok etmagan⁸.

“Fashistlar faqat erkak jangchilardangina emas, balki qiz-juvon soldatlarimizdan ham unutilmas saboq olmoqdalar. Nemislarning tushiga ham kirmagan o‘zbek qizi Zebo qahramon yigitlarimizdek dushmanga o‘lim bermoqda. Andijonlik bu jasur qizning merganlarcha otgan har bir o‘qi gitlerchilar boshiga balo bo‘ldi”, deb yozadi gvardiyachi katta leytenant Meli Jo‘rayev. Zebo G‘aniyeva kabi razvedkachilar o‘z hayotini xavf ostida qoldirib, 12 marta “til” operatsiyasida ishtirok etib, shuhrat qozongan. Zebo G‘aniyevaning qahramonlarcha jang qilish san‘ati, ko‘rsatgan jasoratlari haqida nafaqat O‘zbekiston SSRda, balki butun Ittifoqdagi barcha markaziy va mahalliy gazetalar, jurnallar, jumladan, “Вечерняя Москва”, “Работница”, “Qizil armiya”da foto suratlar bilan yoritilgan⁹.

Jasoratli o‘zbek ayollari qatorida Ro‘za Ibragimova ham e’tiborga loyiqdir. Asli xorazmlik bo‘lgan bu ayol 1943-yilning yoz oylarida O‘zbekistondagi aloqachilar maktabini tugatadi va o‘z ixtiyori bilan Moskva yaqinidagi radio stansiyaga boradi. Roza Ibragimova Berlinni ishg‘ol qilish uchun bo‘lgan janglarda ishtirok etib, o‘zbek ayollarining jasoratini yana bir bor isbotlaydi. Jang maydonida yaralangan askar hamshiralarning qadrini yaxshi biladi, chunki u o‘limdan qutqaradi, daxshatli urush alangasida yarador askarlarning yarasini bog‘laydi, davolaydi. Meditsina xizmatining kapitani Sobira Majidova, tibbiyot xizmatining katta (starshiy) leytenant Maryam Yusupovalar ham o‘z hayotini xavf ostiga qo‘yib, yarador jangchi va ofitserlarni urush olovidan olib chiqadilar. O‘zbek

xalqi o‘zining shunday mardona qizlari bilan faxrlanadi¹⁰.

Yana bir jasorat ko‘rsatgan o‘zbek ayollaridan biri Aziza Qalandarova bo‘lib, u urush boshlanganda 18 yoshda edi. Aziza Qalandarova tibbiyot maktabida o‘qigan. U 1941-yilda Zenitartilleriya bilim yurtiga o‘qishga kiradi. 1942-yildan frontda – 2-Ukraina fronti tarkibidagi 430-artilleriya diviziyasida, Volgadan Ordergacha bo‘lgan hududlarda jang qilgan. Orel yaqinidagi jangda u uchta nemis bombardinomchi samolyotini urib tushurgan. Ushbu jangdagi xizmatlari uchun u “Qizil Yulduz” ordeni bilan taqdirlangan¹¹. Uning boshqa janglarda ko‘rsatgan jasoratlari uchun sovet hukumati “Jasorat” medali hamda “Qizil Bayroq” ordenlari bilan taqdirlangan. Biroq sovet mustamlakachiligi davrida o‘zbek ayollarining tabiatida mavjud bo‘lgan vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg‘ulari “Ittifoq” deb atalgan hudud bilan sun‘iy ravishda o‘lchangan. Bu esa ularda milliy o‘zlikni anglash va milliy mustaqillik uchun kurashishga qaratilgan ehtiyojlarning shakllanishiga imkon bermagan¹².

Xotin-qizlar matbuoti hisoblangan “Коммунистка” jurnalining 1930-yilda va “Yangi yo‘l” jurnalining 1934-yilda chop etilishi to‘xtatilgach, xotin-qizlar o‘rtasida olib boriladigan ishlarning butun mas‘uliyati mehnat va turmushni yaxshilash komissiyalari zimmasiga yuklangan. Komissiya tarkibida respublika bo‘yicha 100dan ortiq a‘zo bo‘lib, ular komissiya zimmasidagi ishlarni bajarish imkoniyatidan yiroq edi. Shuning uchun komissiyalar 1930-yil may oyida ittifoq, respublika, viloyat, shahar va joylardagi ijroiya qo‘mitalariga aylantirilib, VKP (b) MQning 1932-yil 5-yanvardagi qarori bilan o‘z vazifasini bajarib bo‘lgan organ sifatida tugatilgan edi. Shundan so‘ng, xotin-qizlar bo‘limining vazifalari firqa qo‘mitasi va uning bo‘limlariga o‘tib, maxsus sektorga aylantirildi. Mazkur sektorlar 1934-yilgacha amalda bo‘ldi, ularning zimmasiga sovet hukumati va kommunistik partiya tomonidan “xotin-qizlar masalasining hal etilganligi” haqidagi g‘ayriilmiy

¹⁰ Saidaxmedova Z.X. Ikkinchi jahon urushida o‘zbek ayollarining g‘alabaga qo‘shgan hissasi // International Scientific and Practical Conference // Aprel 22, 2025. – B. 75-76.

¹¹ Shamsuddinov R. Ikkinchi jahon urushi va fronti gazetalar I kitob. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – B.124-125.

¹² Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchinchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 343-347.

⁷ Usmonov Q., Sodiqov M. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2009. – B.168-170.

⁸ Usmonova L. O‘zbekiston ijtimoiy hayoyida xotin-qizlar faolligini oshirish. Wos Journals, 2021.

⁹ “Pravda” gazetasi, 1943-yil 8-mart, 65-son.

xulosani ilmiy-amaliy jihatdan mustahkamlash vazifasi yuklatilgan edi.

Aslida xotin-qizlar bo'limlari faoliyatining tugatilishiga sabab sovet hukumati va kommunistik partiyaning xotin-qizlarini "iqtisodiy ozodlikka chiqarish" shiori ostida ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etish, ularning mehnatidan arzon ishchi kuchi sifatida foydalanish, ularni jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchisiga aylantirishga norozilik o'laroq, ayollarning o'z haq-huquqlari uchun kurashishi, mustabid tuzum tomonidan olib borilayotgan siyosatdan norozilikning kuchayib borishida edi. Shuning uchun ham kommunistik partiyaning XVII syezdi Ustaviga muvofiq, partiya qo'mitalari qoshida ixtisoslashgan ishlab chiqarish bo'limlari tashkil etilgan bo'lsa-da, syezd mazkur bo'lim tarkibida xotin-qizlar o'rtasida ish olib boruvchi sektor yoki bo'lim tuzish masalasini ko'rib chiqmadi. Urush yillarida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning xalq xo'jaligidagi rolini o'stirish davr talabiga aylangani uchun xotin-qizlar bo'limlari 1943-yil may oyida VKP(b)ning qarori bilan qisqa muddatga qayta tashkil etildi, ular faoliyatida ishning yo'nalish, shakl va usullari ancha rivojlantirilib, murakkablashtirilib borildi¹³.

VKP(b) MQning 1943-yil 22-yanvardagi qaroriga muvofiq, 1943-yilning may oyidan boshlab Respublika partiya qo'mitalari qoshida xotin-qizlar sovetlari tashkil etilgan, ularga viloyat partiya qo'mitalarida Obkom sekretarlari (viloyat kotiblari)ning o'rinbosarlari, Shahar va rayon partiya qo'mitalarida xotin-qizlar ishlari bo'yicha sekretarlar rahbarlik qilgan. Butun respublikada bu sohaga mas'ul sifatida viloyat partiya qo'mitalarida 10 nafar sekretar yordamchisi, shahar partiya qo'mitalarida 13, shahar tarkibidagi rayon partiya qo'mitalarida 133 kotiba tayinlangan edi. Yangi tashkil topgan bu tashkilotlar zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan edi:

- xotin-qizlar o'rtasida partiyaviy-siyosiy va ommaviy-tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish;
- xotin-qizlarning front va front orqasini har tomonlama mustahkamlashga qaratilgan mehnatlarni uyushtirish;
- jangchilarning oilalariga zarur bo'lgan yordamni tashkil etishga ko'maklashish¹⁴.

¹³ Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchinchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 343-347.

¹⁴ Азиззода Л. Янги ҳаёт курашчилари. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 132.

1940-yil 9-iyulda O'zbekiston komsomol yoshlar uyushmasi kengashi (O'zbekistonda xotin-qizlarni istemol kooperatsiyasi tizimi ishiga jalb qilish tadbirlari to'g'risida) O'zKP MQning 1940-yil 1-iyundagi qaroridan kelib chiqib, 3 ming nafar komsomol qizni O'zbekiston iste'mol kooperatsiyasi tizimida o'qitish kurslariga jalb etish haqida maxsus qaror qabul qildi.

Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida respublika komsomol xotin-qizlaridan 1500 nafari bir oylik kurslarni yakunlagach, tuman va qishloqlardan 225 nafari Toshkent viloyatiga, 227 nafari Samarqand viloyatiga, 525 nafari Farg'ona viloyatiga, 300 nafari Buxoro viloyatiga, 105 nafari Xorazm viloyatiga yo'llanma oldilar. Shunday qilib, iqtisodiy xo'jalikda talab qilingan ishchilar safi mahalliy millat xotin-qizlari hisobidan to'ldirildi.

1941-yil 22-iyunda boshlangan fashistlar Germaniyasiga qarshi urush yillarida o'zbek xotin-qizlarining xalq xo'jaligidagi ishtiroki yuqori darjaga ko'tarildi. Ular xalq xo'jaligining barcha sohalarida faol tarzda qatnashib, frontga ketgan erkaklar o'rniga ham mehnat qildilar. Front ortida minglab xotin-qizlar "Hamma narsa front uchun!", "Hamma ona Vatan himoyasiga", "Front ortida frontdagidek!", "Faqat olg'a va olg'a!", "Topshiriqlarni bajarmay turib ishdan ketma!" shiorlarga javoban yuksak mehnat jasoratlari ko'rsatdilar¹⁵.

Xotin-qizlarni ommaviy kasb-hunarlariga o'rgatish bo'yicha texnikum va MTSlarda sanoat hamda qishloq xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlashning 1 va 6 oylik qisqa muddatli kurslari, 10 kunlik seminarlar tashkil etildi.

Natijada urushning 3 yili davomida 103 ming nafar ishchi ayol tayyorlandi. Ular og'ir jismoniy mehnat talab qiladigan ishlab chiqarishga jalb qilindi.

Xususan, 1700 nafar o'zbek xotin-qizi Angren ko'mir konida ishlay boshladi. 1942-yil 13-fevraldagi O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumining Farmoniga ko'ra, ishlayotgan mehnatga layoqatli ayollar, o'smir yoshlar va nafaqaxo'rlar hisobiga ishchilar safi yanada to'ldirildi.

1941-yil 15-oktyabrda Toshkent shahrining 42 ta korxonasiga 11 ming nafar ishchi ishga qabul qilingan bo'lib, ularning 8 ming nafari xotin-qizlardan iborat edi. Xotin-qizlarni sanoat

¹⁵ Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchinchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 343-347.

korxonalariga ishga jalb qilishda partiya faollaridan J.Obidova, F.Yo'ldoshova kabi o'zbek ayollari fidoyilik ko'rsatdi.

Urush yillarida markazdan O'rta Osiyoga evakuatsiya qilingan jami 308 ta korxonaning 104 tasi O'zbekistonga, xususan, 55 tasi Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga joylashtirilgan. Toshkentga ko'chirib keltirilgan sanoat korxonalaridan biri Chkalov nomidagi aviatsiya zavodi edi. Mazkur zavod uch oy ichida katta tashkilotchilik ishlari tufayli yetakchi kadrlar bilan ta'minlanib, to'la quvvat bilan ishlay boshladi. Umumiy ishchilar sonining 70 foizi yangi ishga qabul qilingan kadrlar bo'lib, shulardan 362 nafari o'zbek xotin-qizi edi.

Tajribali ishchilarning frontga ketishi natijasida vujudga kelgan kadrlar taqchilligi tufayli yangi kelgan, tajriba va mehnat malakasiga ega bo'lmaganlar g'oyat qisqa muddat ichida turli ishlab chiqarish kasblariga o'rgatish va o'qitish yo'li bilan to'ldirib borildi.

Shuningdek, bu davrda Turkistonda 2 ta markaziy, 5 ta viloyat va 5 ta uyezd partiya sovet maktablari faoliyat ko'rsatgan. Ularda o'qiyotgan 1312 nafar tinglovchining 10 foizini xotin-qizlar tashkil etardi¹⁶.

Yakuniy qism. Sovet davrida o'zbek ayollarining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rni tubdan o'zgardi. "Hujum" siyosati qanchalik keskin va ziddiyatli kechmasin, u o'zbek jamiyatida ayolning faollashuviga turtki berdi. Ayollar ishlab chiqarish, ta'lim, sog'likni saqlash va siyosat sohalarida o'z o'rnini topdilar. Shu bilan birga, bu "tenglik" ko'p hollarda formal tusda bo'lgan. Sovet mafkurasi ayollar faolligini, asosan, siyosiy propaganda vositasi sifatida ishlatgan. Ammo tarixiy jihatdan qaralganda, sovet davri o'zbek ayollarining jamiyatdagi mavqeyini oshirishda, ularni ijtimoiy hayotga jalb etishda katta burilish nuqtasi bo'ldi.

¹⁶ Reyimbayeva O.E. O'zbekistonda sovet hukumatining ayollar masalasidagi siyosati va uning oqibatlar. – Urganch, 2015.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
2. Mardiyeva G.K. O'zbek xotin-qizlari: ijtimoiy o'zgarishlar sovet hukmronligi davrida // "SCIENCE AND EDUCATION" scientific journal/www.openscience.uz, 2023.
3. Алимова Д.А. Женский вопрос в Средней Азии. История изучения и современные проблемы. – Ташкент, 1991. – С. 19.
4. Nishonboyeva Q.V. O'zbekistonda xotin-qizlar masalasini hal etishning madaniy jihatlari. 20–30-yillar. Tajriba va oqibatlar. Tarix fan.diss., 1998. – 31 b.
5. Usmonov Q., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2009. – B.168-170.
6. Usmonova L. O'zbekiston ijtimoiy hayoyida xotin-qizlar faolligini oshirish. Vos Journals, 2021.
7. "Pravda" gazetasi, 1943-yil 8-mart, 65-son.
8. Saidaxmedova Z.X. Ikkinchi jahon urushida o'zbek ayollarining g'alabaga qo'shgan hissasi // International Scientific And Practical Conference // Aprel 22, 2025. – B. 75-76.
9. Shamsuddinov R. Ikkinchi jahon urushi va fronti gazetalari I kitob. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – B.124-125.
10. Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchinchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 343-347.
11. Азиззода Л. Янги ҳаёт курашчилари. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 132.
12. Reyimbayeva O.E. O'zbekistonda sovet hukumatining ayollar masalasidagi siyosati va uning oqibatlar. – Urganch, 2015.